

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING HUQUQIY ASOSLARI VA YURIDIK TAHLILI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20780907>

Normetov Tohirjon Xamitovich

*Qurniqlikdagi Qo'shinlar Instituti Milliy iftixor va harbiy vatanparvarlik kafedrası
o'qituvchisi QKX, dotsent*

Annotatsiya

Ushbu maqolada korrupsiya va korrupsiyaviy jinoyatlar tushunchasi ko'rib chiqilib, korrupsiyaviy jinoyatlarning yuridik tahlili amalga oshirilgan. Shuningdek, ushbu turdagi jinoyatlarning obyektiv va subyektiv belgilarining jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda ahamiyati ham o'rganilgan. Xususan, ushbu toifadagi jinoyatlarning boshqa turdagi jinoyatlardan farqlovchi belgisi: jinoyat obyekt, predmeti, manfaatlar, motivi, maqsadi kabi tushunchalar tahlil etilgan. Shuningdek, xorijiy va mamlakatimiz olimlarining bu boradagi fikrlari va yondoshuvlari ham ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: korrupsiya, jinoyat, korrupsiyaviy jinoyat, jinoiy javobgarlik, jinoyat tarkibi, obyekt, subyekt.

Abstract

This article examines the content of corruption and corruption crimes, in addition, given a legal analysis of corruption crimes. Also, there has been studied the importance of objective and subjective signs of a crime in the qualification of this type of crimes. Also, the opinions and approaches of foreign and domestic scientists in this field are considered. In addition, proposals and recommendations are given on introducing amendments and additions to the criminal legislation to eliminate negative factors, taking into account the growth in the number of these types of crimes, since this is a negative factor for the development of society and the state, since this negative factor causes great damage to the economic foundations of the state .

Keywords: corruption, crime, corruption crime, criminal liability, elements of the crime, object, subject.

"Hammamiz yagona kuch bo'lib harakat qilsak, albatta, katta ijobiy samaraga erishamiz. Shu bois mahalla faollari, nuroniylar, ziyolilar, yozuvchi va shoirlar, san'at va

madaniyat xodimlari, tadbirkorlar, taniqli shaxslar, rahbarlar, deputat va senatorlar – umuman butun jamoatchilik birlashib, korrupsiyaga “jamiyat tanasidagi saraton” sifatida qarashi kerak”

O’R. Prezidenti Sh.Mirziyoyev 5 mart kuni Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig’ilishidagi nutqidan

KIRISH

Korrupsiya - bu jamiyatni turli yo’llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. Mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to’sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi.

Ma’lumki, korrupsiya kabi o’ta xavfli illat davlat va jamiyatni ich-ichidan yemiradi. Korrupsiyaning avj olishi fuqarolarda davlat hokimiyatiga ishonchsizlik kayfiyatini uyg’otib, milliy xavfsizlikka va davlatchilik asoslariga tahdid soladi.

Shu jihatdan, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish butun dunyoda dolzarb masalalardan biri bo’lib qolmoqda. Zero, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, -korrupsiyaning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo’lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog’i rivojlanmaydi [1].

Bugungi kunda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida keng qamrovli islohotlar amlaga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, korrupsiyaviy xavflarni aniqlash va tizimli tahlil qilish, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf qilish uchun mas’ul bo’lgan alohida organ, ya’ni Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi; davlat hokimiyati organlari va ayrim xo’jalik yurituvchi subyektlarda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat-komplayens-nazorat tuzilmalari faoliyati yo’lga qo’yildi; korrupsiya va suiiste’molchiliklarning oldini olishga maqsadida davlat xizmatlarini o’rsatish tizimiga raqamli texnologiyalar keng joriy etildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining- Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo’lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to’g’risidagi 06.07.2021 yildagi PF-6257-son Farmonida korrupsiyaga oid jinoyatlarni olidini olishga qaratilgan alohida choralar

belgalangan. Unga ko'ra, korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarning ochiq elektron reyestrini yuritishni yo'lga qo'yish, Jinoyat kodeksida korrupsiyaga oid jinoyatlar toifasiga kiruvchi moddalarning aniq ro'yxatini belgilash; korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun belgilangan jazo choralari uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazo chorasigacha keskin kuchaytirish; daromadlar va mol-mulkni deklaratsiyalash jarayonida aniqlangan noqonuniy bo'lylik orttirganlik uchun javobgarlik o'rnatish; korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan inoiy jazoni o'tashda yengillashtiruvchi normalar qo'llanilishiga cheklovlar belgilash nazarda tutilgan.

Shuningdek, -Elektron jinoiy-huquqiy statistika yagona axborot tizimi doirasida davlat organlari va tashkilotlari xodimlari tomonidan sodir etilgan korrupsiyaga oid jinoyatlar haqidagi statistik ma'lumotlar hamda hukm qonuniy kuchga kirgan jinoyat ishlarining sohalar va hududlar kesimidagi elektron bazasini shakllantirish ham alohida belgilangan.

Aloxida ta'kidlash joizki, korrupsiya kabi ijtimoiy fenomen so'nggi yillarda xalqaro miqyosda transmilliy jinoyat sifatida xalqaro tashkilotlar tomonidan keng muhokama qilina'etgan jiddiy muammolardan biridir.

Hattoki, ayrim siyosatchilar tomonidan korrupsiyaga global inqirozni keltirib chiqaruvchi omil sifatida ham qarab kelinmoqda. Ushbu muammoning yechimi murakkab va qiyin bo'lib, unga jamiyatdagi bir kasallik deb qaraladi va korrupsiya keltiradigan zarar barcha davlatlar uchun sezilarli. Korrupsiya davlatning turli tuzilmalariga, jumladan, soliq tizimiga, ijtimoiy sohadagi islohotlarga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Aytish kerakki, -o'tgan 4,5 yil davomida 9 ming 546 nafar shaxs tomonidan davlat va fuqarolar manfaatlariga 3,2 trillion so'mlik zarar yetkazilgan korrupsiya jinoyatlari sodir etilgan. Ushbu sonlardan korrupsiyaning jamiyat va davlat rivojiga qay darajada zarar yetkazishini ko'rishimiz mumkin.

Ma'lumki, -korrupsiya atamasi ko'p hollarda mulkiy ko'rinishdagi naf olishga qaratilgan poraxo'rlik kabi jinoyat sifatida tushuniladi. Ammo, korrupsiyaviy jinoyatlarning ro'yxati poraxo'rlik jinoyatlari bilangina chegaralanib qolmaydi.

Ushbu toifadagi jinoyatlar tushunchasiga ta'rif berishdan oldin -korrupsiyal atamasining mazmunidan kelib chiqqan holda -korrupsiyaviy jinoyatlar tushunchasini ochish lozim bo'ladi. Milliy qonunchilikda belgilanganidek, korrupsiya bu shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish harakatlari tushuniladi.

Mamlakatimizda korrupsiyaviy jinoyatlar toifasi qonunchilik bilan alohida belgilanmagan, shu bilan birga korrupsiya tushunchasiga berilgan ta'rifdan korrupsiyaviy jinoyatlarga ularning huquqiy tavsifidan, belgilaridan qo'yidagilarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin. Korrupsiyaviy jinoytlarning aksariyati Jinoyat kodeksining 15-bobida (Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar) va ayrimlari 10-bob (O'zgarar mulkini talontoroj qilish), 17-bob (-Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar) hamda 24-bob (-Harbiy mansabdorlik jinoyatlari)da o'z aksini topgan.

Bugungi kunda-korrupsiyaviy jinoyat, -korrupsiyaga oid jinoyat, -korrupsion jinoyat tushunchalari qo'llanilishiga qaramay, mazmunan farqlanmaydi. Fikrimizcha, ushbu toifadagi jinoyatlarning boshqa turdagi jinoyatlardan farqlovchi belgisi bu tajovuz obyekti, motivi hamda mansab vakolatidan foydalanilishidir.

Masalan, JKning 205-moddasida jinoyatning asosiy bevosita obyekti davlat hokimiyati, boshqaruv va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining normal faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Qo'shimcha bevosita obyekt sifatida fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Obyektiv tomondan jinoyat hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish, ya'ni mansabdor shaxsning o'z mansab vakolatidan turli niyatlarda foydalanishi natijasida fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko'p miqdorda zararyo yoxud jiddiy ziyon yetkazilishida ifodalanadi [2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Hokimiyat vakolatini suiiste'mol qilish deganda, mansabdor shaxsning o'z mansab mavqeidan fuqarolar, jamiyat va davlat manfaatlariga qarshi qasddan foydalanishini tushunish lozim. Mansab vakolatini suiiste'mol qilish deganda, mansabdor shaxsning mansab mavqeidan kelib chiqqan va bu shaxs yegallagan lavozimi vakolatiga berilgan huquq va majburiyatlarni amalga oshirish bilan bog'liq, biroq o'z mazmuni bo'yicha tegishli organning faoliyat olib borishidan ko'zlangan maqsad va vazifalarga zid keluvchi harakatlarini tushunish lozim. Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish davlat hokimiyati va boshqaruvi, mahalliy o'zini o'zi boshqaruv organlari mavqeiga putur yetkazish; o'zganing mulkini talon-toroj qilishni yashirish; turli moliyaviy talon-torojlarni amalga oshirish; davlat, jamoat yoki boshqa o'zga mulk hisobidan, uni tortib olmasdan g'arazli foyda olish; alohida fuqarolarga tegishli mulk hisobiga g'ayriqonuniy boyish va boshqalardan iborat. Hokimiyat deganda, ma'lum bir vositalar - iroda, nufuz, huquq, majburlov, siyosiy hukmronlik, davlat organlari

tizimi orqali insonlar faoliyatiga, xulq-atvoriga ta'sir yetish qobiliyati va imkoniyati tushuniladi [3]. Mansabdor shaxs tomonidan o'z xizmat vakolatini suiiste'mol qilishga lavozimni yegallab turgan vaqt davomida vakolatlarni suiiste'mol qilish kiritiladi. Mansabdor shaxs o'ziga kerakli bo'lgan qarorga yerishish maqsadida o'z xizmat vakolatlaridan emas, balki xizmat yoki shaxsiy aloqalari, yegallab turgan lavozimning obro'sidan foydalansa, jinoyat tarkibi bo'lmaydi. Tergov organlari va sud tomonidan fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga jiddiy ziyon yetkazilganligi masalasi muayyan ishning barcha holatlarini ye'tiborga olgan holda hal yetiladi. Mansabdor shaxs vakolati muayyan mansabni yoki vaqtinchalik yoxud maxsus vakolat bilan ushbu mansab bo'yicha vazifani bajaruvchi shaxsning huquq va majburiyatlari tartibga solingan tegishli qonunlar, nizom va boshqa normativ hujjatlarda belgilangan layoqati bilan belgilanadi.

Mansab vakolatini suiiste'mol qilish turlicha bo'lishi mumkin. Bu bo'ysunuvchilarning mehnatidan shaxsiy manfaatlar yo'lida g'ayriqonuniy foydalanish (masalan, ishchilarning shaxsiy uy-joy, hovlilar qurilishida, uylarni ta'mirlashda); qo'l ostidagi xodimlarning mehnatini o'zlashtirib olish; turar joy taqsimotida suiiste'mol qilish; korxonalarni xususiy lashtirish jara'ida mansab mavqeidan foydalanib, xususiy mulk sifatida sotib olish maqsadida yoki amaldor tomonidan aksiyalarning ancha qismini yegallab olinishida mansabdor shaxs o'zining, unga yaqin kishining yoki boshqa xususiy shaxslarning manfaatlarini himoya qilib mansab vakolatidan foydalanishi; umumdavlat yehtiyojlariga mo'ljallangan moliya va kreditni g'arazli yoki boshqa past niyatda tijorat tashkilotlariga g'ayriqonuniy berib yuborish; Budget mablag'larini behuda sarflash, shu jumladan bu mablag'larning tijorat banklarida aylantirilishi; kredit, qimmatbaho qog'ozlarni, ko'chmas va boshqa mulkni olishda huquqiy hujjatlarda ko'zda tutilmagan imtiyozlardan foydalanish; shaxsiy yoki guruh maqsadlarida xizmat faoliyati uchun taqdim yetilgan xonalar, transport va aloqa, yelektron-hisoblash texnikasi, pul mablag'lari va boshqa mulkdan foydalanish va boshqalar.

Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish jinoyati obyektiv tomondan davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mansabdor shaxsining o'z mansab vakolatlaridan qasddan foydalanishi fuqarolarning huquqlariga e'ki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yoxud jiddiy ziyon yetkazilishida ifodalanadi.

Shuningdek, Jinoyat kodeksiga muvofiq,-mansabdor shaxs deganda, doimiy, vaqtincha yoki maxsus vakolat bo'yicha tayinlanadigan yoki saylanadigan,

hokimiyat vakili vazifalarini bajaradigan yoxud davlat organlarida, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida, mulk shaklidan qat'i nazar, korxonalarda, muassasalarda, tashkilotlarda tashkiliy-boshqaruv, ma'muriy-xo'jalik vazifalarini amalga oshiradigan va yuridik ahamiyatga ega harakatlarni sodir etishga vakolat berilgan shaxs, xuddi shuningdek xalqaro tashkilotda yoxud chet davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, ma'muriy yoki sud organida mazkur vazifalarni amalga oshiruvchi shaxs tushuniladi. Bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan besh yuz baravarigacha bo'lgan miqdordagi zarar ko'p miqdordagi zarar hisoblanadi. Bir qator jinoyatlarning zaruriy elementi sifatida jiddiy ziyonning yuzaga kelishi lozimligi ko'rsatilgan bo'lsada, amaldagi qonunchilik jiddiy ziyon deganda aynan qanday oqibatlar tushunilishi masalasiga aniqlik kiritmagan.

Shu bilan birga, hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish o'z xususiyatlariga ko'ra qonunda belgilangan huquq va majburiyatlarni faol xulq-atvor orqali amalga oshirishga qaratilgan harakatda namoyon bo'ladi.

Harakatsizlik orqali amalga oshiriladigan hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish JKning 208-moddasida (Hokimiyat harakatsizligi) nazarda tutilgan jinoyatni tashkil etadi.

Mansabdor shaxs tomonidan uz xizmat vakolatini suiiste'mol qilishga lavozimni egallab turgan vaqt davomida vakolatlarni suiiste'mol qilish kiritiladi. Mansabdor shaxs o'ziga kerakli bo'lgan qarorga erishish maqsadida o'z xizmat vakolatlaridan emas, balki xizmat eki shaxsiy aloqalari, egallab turgan lavozimning obro'sidan foydalansa, jinoyat tarkibini tashkil etmaydi [4].

Shuningdek, korrupsiyaviy jinoyatlar toifasiga kiradigan jinoyatlar ya'ni JKning 210-212 moddalarida nazarda tutilgan pora olish-berish hamda vositachilik qilish jinoyatini tahlil qiladigan bo'lsak, soha mutahasislarining fikriga ko'ra, poraxo'rlik bu-boshqaruv organlari faoliyati tartibiga qarshi qaratilgan uchta mustaqil mansabdorlik jinoyatlari bo'lib, ular pora olish, pora berish va pora olish-berishda vositachilik qilishni o'z ichiga oladigan tushunchalarda aks bo'ladi.

Aytish kerak, yuqorida sanab o'tilgan har bir qilmish JK 210- 212-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar bilan bog'liq bo'lmagan holda sodir etilishi mumkin emas. Ular bir-biri bilan shu darajada bog'liq bo'ladiki, pora olish faktining mavjud emasligi pora berish faktini ham istisno etadi va aksincha [5]. Ushbu jinoyatlarning xavfi yuqoriligi vuyidagilarda namoèn bo'ladi, birinchidan, davlat organi normal faoliyatining buzilishiga; ikkinchidan, davlat organi obro'si tushishiga; uchinchidan, fuqarolarning ijtimoiy adolatga bo'lgan ishonchining

so'nishiga va to'rtinchidan, fuqarolarning huquq va manfaatlari buzilishiga olib kelishi bilan belgilanadi.

Yuqoridagi jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligi shu bilan izohlanadiki, pora olish mansabdor shaxslar tomonidan o'zlarining mansab vakolatlarini ijro etishning o'rnatilgan tartibini keskin o'zgartiradi va bu bilan davlat xizmati manfaatlarini qo'pol buzadi.

Pora olish jinoyatini tahlil qiladigan bo'lsak, bevosita obyekt hokimiyat yoki boshqaruv organlarining obro'si, normal faoliyat yuritishini ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlar, fuqarolarning huquqlari yoki qonuniy manfaatlaridir. Poraning predmeti bo'lib pul, valyuta qimmatliklari, qimmatbaho buyumlar, avtomobillar va boshqa har qanday mol-mulk, oziq-ovqat mahsulotlari, spirtli ichimliklar, antiqa buyumlar va h. k., ya'ni moddiy qimmatga yega bo'lgan har qanday narsalar e'xud mulkiy xususiyatdagi naf ko'rish (sanatoriya yo'llanma, turistik yo'llanma, biron-bir pulli xizmatni ko'rsatish kabilar) mumkin.

Korrupsiyatsion jinoyatlarning yuridik tahlil qilishda, biz avvalo ushbu toifadagi jinoyatlarning oid jinoyatlarning obyektiv va subyektiv belgilariga e'tibor qaratishimiz maqsadga muvofiq.

Olimlarning fikriga ko'ra, jahondagi qonunlarning birortasida -korrupsiya tushunchasi jinoyat tarkibi sifatida tilga olinmaydi, zero u jinoyat tarkibini tashkil etmaydi, balki jinoyatchilik kabi, boshqa ko'pgina ijtimoiy hodisalar kabi ijtimoiy hodisadir.

Boshqa bir guruh olimlar korrupsiyaviy jinoyatlar obyekt sifatida -davlat xizmatining obro'sini, unga nisbatan xalqning ishonchi va hurmatini, davlat apparatining qonuniy qaoliyatini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlarni ko'rsatishadi.

Fikrimizcha, korrupsiyaviy jinoyatlarning obyektini aniqlashda umumiy va bevosita obyektlarni alohida-alohida ko'rib chiqish lozim bo'ladi.

Korrupsiyaviy jinoyatlarning umumiy obyekt davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining normal faoliyat yuritishini, fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

O'z navbatida, mazkur ijtimoiy munosabatlar Jinoyat kodeksining 205-206, 209-214-moddalari uchun bevosita obyekt bo'lib xizmat qiladi. Jinoyat kodeksi 1929-19211-moddalarida ko'rsatilgan jinoyatlarning bevosita obyekt xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy munosabatlardan iborat. Mulkni mansab mavqeini suiiste'mol qilish orqali o'zlashtirish e'ki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish jinoyatining bevosita obyekt aybdorga ishonib topshirilgan yoki uning ixtiyorida bo'lgan

o'zganing mulkini muhofaza qilishga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Xizmat mavqeidan foydalanib sodir etilgan firibgarlik jinoyatining bevosita obyekti esa, o'zganing mulki yoki mulkiy huquqlarini muhofaza qilishga qaratilgan ijtimoiy munosabatlardir. Ko'rinib turibdiki, korrupsiyaviy jinoyatlarning obyektiga xos umumiy jihat shundaki, korrupsiyaviy jinoyatlar davlat hokimiyati va boshqaruvi, jamoat birlashmalari faoliyati bilan bog'liq davlat apparatining normal faoliyatini ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlar va bu munosabatlarda ayrim fuqarolarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga tajovuz etadi.

Jinoyat qonunchiligida korrupsiyaga oid jinoyatlar, jumladan, pora olish jinoyatining predmeti sifatida faqatgina moddiy qimmatliklar va mulkiy manfaatdorlikni nazarda tutadi. Shu kabi normalarni Jinoyat kodeksining 1929-19210, 211, 213-214-moddalari dispozitsiyalarida ham ko'rishimiz mumkin.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining -poraxo'rlik ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risidagi qarorining 2-bandiga asosan, pul, qimmatbaho qog'ozlar, moddiy boyliklar, shuningdek, pora oladiganga qaytarmaslik sharti bilan, lekin mulkiy mohiyatga molik bo'lgan (masalan, ta'mirlash, qurilish, qayta tiklash ishlarini bajarish va boshqalar) xizmatlar pora predmeti bo'lishi mumkin. Amaldagi jinoyat qonunchiligidagi korrupsiyaviy jinoyatlar predmetiga oid normalar tegishli qonun va xalqaro standartlar talablariga javob bermaydi.

Shu sababli, yuqorida sanab o'tilgan moddalarning dispozitsiyasi hamda tegishli plenum qaroriga nomoddiy qimmatliklar hamda nomulkiy manfaatdorlikni ham jinoyat predmeti sifatida e'tirof etishni nazarda tutadigan o'zgartirishlarni kiritish lozim bo'ladi.

XULOSA

Shu bilan birga, mulkiy xarakterga ega bo'lmagan foydalar pora predmeti bo'lishi mumkin emas. Masalan, mansabdor shaxs tomonidan boshqa shaxs manfaatlariga qaratilgan o'z harakatlari uchun nomoddiy xarakterdagi xizmatlar olish: ijobiy tavsifnoma, tavsiyanoma, maqolaga taqriz va boshqalar. Muayyan shartlar mavjud bo'lgan holda mazkur harakatlar mansab vakolatini suiiste'mol qilish yoki mansab vakolatidan chetga chiqish sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim. Mansabdor shaxs tomonidan biror harakat sodir yetilganligi uchun u bilan jinsiy aloqaga kirishish ham pora predmeti hisoblanmaydi, muayyan shartlar bo'lgan hollarda yesa mazkur harakat JK 121-moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, jinoyat qonunchiligini takomillashtirishga qaratilgan quyidagilarni qabul qilish masadga muvofiq deb hisoblaymiz:

Birinchidan, poraxoʻrlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi Jinoyat kodeksi moddalari dispozitsiyasiga tegishlicha oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish orqali nomoddiy qimmatliklar va nomulkiy manfaatdorlikni mazkur jinoyatlarning predmeti sifatida belgilash.

Ikkinchidan, xalqaro standartlar va xorij tajribasiga asoslangan holda pora taklif qilish, pora berishni vaʼda qilish, pora soʻrash va pora haqidagi taklifni qabul qilish kabi harakatlarni tugallangan jinoyat sifatida eʼtirof etish lozim.

REFERENCES:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 25.01.2020 yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // [Elektron manba].
2. Rustambayev M.X. Oʻzbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 4. Darslik. 2-nashr, toʻldirilgan va qayta ishlangan – T.: Oʻzbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 330 bet.
3. Bolshoy ensiklopedicheskiy slovar /Gl. red. A.M. Proxorov. 2-oye izd.,pererab. i dop. M.: 1998.- 212-b.
5. Rustambayev M.X. Oʻzbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 4. Darslik. 2-nashr, toʻldirilgan va qayta ishlangan – T.: Oʻzbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 339 bet.